



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(3)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 484 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini o'rganishning ahamiyati.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiov Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinova</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech..... 184 Turumbetova Aygul Yusupbaevna	184
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi 189 Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	189
	Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish 191 Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	191
	Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi..... 195 Ermatova Robiya Bekjonali qizi	195
	The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education 199 Ismailova Shaira Ferdausovna	199
	Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners 204 Maqsudova Gulnoz Olimovna	204
	Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms 208 Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	208
	Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching 212 Sharipova Muhabbat Erkinovna	212
	Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili..... 216 Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	216
	Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv 222 Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	222
	O'qituvchilarning qadriyatlarini va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili 227 Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	227
	Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida 229 Safarova Madina Azamat qizi	229
	Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности..... 233 Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	233
	Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века 239 Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Ғолиб	239
	Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана 242 Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	242
	Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining asosiy shakllari 245 Abdukarimov Nurmaxan Amirxanovich	245
	Orol bobo obrazi orqali inson va tabiat birligining talqini 249 Hayotova Diyora Hamid qizi	249
	Yosh taekvondochilarda (10–12 yoshli) kuch, tezkorlik va ephillik sifatlarini takomillashtirish metodikasi .. 254 Iminova Z. B., Nazarova M. A.	254
	Oliy ta'lim muassasasi kafedra mudirlarida liderlik xususiyatini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar 258 Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna	258
	Mediafalsafaning oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari va pedagogik funksiyalari 265 Mirabdullayev Izzatillo Isroiljon o'g'li	265
	Maktabgacha ta'lim tashkiloti kun tartibini to'g'ri tashkil etishda tarbiyachining roli..... 271 Muminova Gulasal Baxodirovna	271
	Soft Skills yondashuvi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish 275 Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	275
	Tasviriy faoliyat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish .. 280 Sadirova Kamola Giyozovna	280



Inklyuziv ta'lim sharoitida maxsus pedagogik metodlar orqali o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash.....	284
<i>Suyunova Kamola Jamshed qizi, Suvonova Kamola Rayimkulovna</i>	
Web-dizayn texnologiyalari asosida bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining raqamli kompetentligini shakllantirish metodikasi	287
<i>Ulmasbek Abdubanapovich Yuldashev, Prof. Dr. Ayhan Istanbulu</i>	
O'smirlar axloqiy rivojlanishining psixologik determinantlari va ularni takomillashtirish mexanizmlari	293
<i>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</i>	
Oliy ta'limda o'zbek tili fanini o'qitish: muammo va yechimlar	297
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Folklor motivlarining bolalar xarakteri shakllanishidagi o'rni.....	300
<i>Safarova Nigora Oxunjonovna, Sayfilloyeva Jasmina Jahongirovna</i>	
Kreativ pedagogga qo'yiladigan talablar va uni shakllantirish bosqichlari	304
<i>Abdialimova Maxfuza Safarboy qizi</i>	
Biologiya darslarida STEM va biotexnologiya integratsiyasining nazariy poydevori	307
<i>Abdusamatov Abduqodir Norqul o'g'li</i>	
The Effectiveness of Project-Based Learning in Developing 21 st -Century Skills Among EFL Learners	314
<i>Axmatova Munisa Orif qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning o'yin faoliyati asosida ijtimoiylashuvi.....	320
<i>P. M. Pulatova, El'muradova Madina Yangiboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini xalq og'zaki ijodi asosidagi didaktik o'yinlar orqali rivojlantirishning lingvopsixologik va tarbiyaviy mexanizmlari	326
<i>Muqimova Gullola Qobil qizi, Sultonov Humoyun Ulug'murodovich</i>	
Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirishning metodologik asoslari	330
<i>Nurkeldi Jarasbayev</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining informatika ta'limidagi o'rni va ahamiyati	334
<i>Abdullayev Abubakir Narzullayevich, Xurozboyeva Sevinch Abror qizi</i>	
Научно-методологические основы организации психопрофилактической и психокоррекционной работы в практической психологии	337
<i>Ядгарова Озода Ибрагимовна</i>	
Raqamli ta'lim muhitida birlamchi manbalar bilan ishlashning sun'iy intellektga asoslangan pedagogik-metodik mexanizmlari	342
<i>Yursinboyev Jaxongir Mexrojiddin o'g'li</i>	
Zamonaviy biologiyada umumiy genetikaning o'rni va istiqbollari	348
<i>Ko'bayev Jurabek Eshmamatovich</i>	
Разработка системы мониторинга информационной безопасности для высших учебных заведений... ..	352
<i>Хамроев Шохбоз Султонмуродович</i>	
Klaster metodi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnli masala yechish ko'nikmasini rivojlantirish ..	356
<i>Atoeva Laylo Akram qizi</i>	
Ta'lim subyekti sifatida o'qituvchi va sun'iy intellektning psixologik-pedagogik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish	363
<i>Mirзахmatova Sayyora Saydaxmatovna</i>	
Research Methodologies for Examining English Texts Focused on Ecotourism Destinations	366
<i>Nurbek Yavqochev</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar aqliy rivojlanishida bolalar adabiyotining o'rni.....	369
<i>Yuldoshova Mexriniso</i>	
Integrativ yondashuvning logopedik mashg'ulotlar orqali dizartriyaning korreksiyalashdagi ahamiyati	372
<i>Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi	378
<i>Axmedjanov Shuhrat Boltayevich</i>	
Og'zaki nutqni baholash va rivojlantirish omillari va nutqiy vaziyatlar	381
<i>G'aybulloyeva Feruza Bobir qizi</i>	
Hayotiy vaziyatlar asosida matematik tasavvurlarni shakllantirish	384
<i>Raimberdiyeva Sh. N., Ismoilova M. M.</i>	

The Role of Word Formation Processes in Enriching the Vocabulary of the English Language	387
<i>Qoldigiz Mirzayeva</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishini psixodiagnostika qilishning nazariy va amaliy asoslari	391
<i>Radjabova Dilnura Anvarbekovna</i>	
Maktabga tayyorlov yoshida aqliy tarbiyalashda didaktik o'yinlarning o'rni va ahamiyati.....	397
<i>Ziyodullayeva Ruxshona O'ral qizi, Ismoilov Bobur Tohirovich</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlash va axborotni saralash kompetensiyasini rivojlantirishning neyropedagogik mexanizmlari.....	401
<i>Xolmatova Saboxat Iloxomjon kizi</i>	
Akmeologik yondashuv asosida talabalarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishni takomillashtirish ...	408
<i>Xoshimova Muazzamxon Zaynalobidinovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining dirijyorlik apparatini shakllantirishda qo'llaniladigan interfaol metodlarning ahamiyati.....	413
<i>Z. A. Nuraliyeva</i>	
3-sinf ona tili darsligidagi birikuvchanlikka doir mashqlar tahlili.....	417
<i>Safarov Firuz Sulaymonovich, Hamroyeva Zahro G'afforovna</i>	
Лингво-дидактические требования к организации дистанционного обучения иностранному языку: цифровизация, инклюзия и мировой опыт	420
<i>Азимова Ситора Рахимовна</i>	
Развитие альтруистической самоотверженности у подростков на основе прогрессии навыков позитивного мышления	429
<i>Ахрарова Шоира Батыровна</i>	
“Лишний человек” и трагическое осознание своей ненужности	433
<i>Мустафоева Холида Худжагелдиевна</i>	
Talaba-psixologning kasbiy muhim sifatlarini takomillashtirish amaliy ishga tayyorlik omili sifatida	438
<i>Nurimbetova Elmira Jumamuratovna</i>	
Texnologiya faniga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari	441
<i>Abdufatayev Sherjaxon Abduazimovich, Yaminova Nargiza Nuriddinovna</i>	
Alisher Navoiy ijodiy merosida ustoz-shogird munosabatlarining aksiologik asoslari	444
<i>Abdullayeva Sabohat G'ayratullayevna</i>	
The Role of Artificial Intelligence in Enhancing English Language Teaching and Learning	448
<i>Asamatdinov Alim Baxtiyarovich, Ochilova Dilfuza Nematovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida monologik nutqni shakllantirishda savod o'rgatish, matn bilan ishlash va audiovizual vositalarning ahamiyati	451
<i>Ikromova Gulhida Axmadillo qizi, Axmadjonova Dilroz Abdulaxad qizi</i>	
Raqamlashtirish sharoitida talabalarda korrupsiyaga nisbatan intolerant madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari.....	456
<i>Axmedova Dilnora Kobiljonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida steam texnologiyasidan foydalanishning amaliy asoslari.....	460
<i>Boltayeva Nasiba Iltom qizi</i>	
Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi.....	464
<i>Bozorova Nigora Sodikjon qizi</i>	
Kontekstli yondashuv orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lisoniy-pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	467
<i>Eshoqulova Kamola Ibroximovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar muloqot ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalari	471
<i>Isoqjonova Dilfuzaxon Muxtorjon qizi</i>	
Talabalik davrida o'quv faoliyatidan qoniqqanlik va lokus nazorat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	474
<i>Jo'rayeva Iqbolxon Po'latovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yo'l harakati xavfsizligi kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi	479
<i>Jumayev Yunus Rashidovich</i>	

ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSIDA USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARINING AKSIOLOGIK ASOSLARI

Abdullayeva Sabohat G'ayratullayevna

NDU Pedagogika nazariyasi
Pedagogik ta'limotlar tarixi tayanch doktoranti,
Profi University Navoiy filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodiy merosida aks etgan ustoz-shogird munosabatlarining aksiologik asoslari tahlil etilgan. Mutafakkir asarlarida ilm-fanga hurmat, ustozga ehtirom, shogirdning odob-axloqi, ma'naviy kamoloti hamda komil inson tarbiyasiga oid qarashlar o'rganilgan. Shuningdek, Navoiy asarlarida ilgari surilgan qadriyatlar tizimi zamonaviy ta'lim jarayonidagi ustoz-shogird munosabatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, ularning pedagogik va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari Navoiy merosida mujassam bo'lgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Navoiy asarlari, ustoz-shogird munosabatlari, aksiologiya, qadriyatlar tizimi, ma'naviy tarbiya, komil inson, pedagogik meros, ta'lim-tarbiya, ustozga hurmat, shogird odobi.

Abstract: This article examines the axiological foundations of teacher-student relationships reflected in the creative heritage of Alisher Navoi. The study explores the thinker's views on respect for knowledge and science, reverence for teachers, students' moral conduct, spiritual development, and the education of a well-rounded individual. The value system presented in Navoi's works is analyzed from the perspective of contemporary teacher-student relationships in the educational process, highlighting its pedagogical and educational significance. The findings demonstrate that the spiritual and moral values embodied in Navoi's legacy serve as an important methodological foundation for fostering the comprehensive development of the younger generation.

Key words: Alisher Navoi, Navoi's works, teacher-student relationships, axiology, value system, spiritual education, well-rounded individual, pedagogical heritage, education and upbringing, respect for teachers, student ethics.

Аннотация: В данной статье проанализированы аксиологические основы отношений между учителем и учеником, отраженные в творческом наследии Алишера Навои. Рассмотрены взгляды мыслителя на уважение к знаниям и науке, почтительное отношение к наставнику, нравственное воспитание ученика, его духовное совершенствование и формирование личности совершенного человека. Особое внимание уделено анализу системы ценностей, представленной в произведениях Навои, с позиции современных отношений "учитель-ученик" в образовательном процессе. Раскрыта их педагогическая и воспитательная значимость. Результаты исследования свидетельствуют о том, что духовно-нравственные ценности, содержащиеся в наследии Навои, являются важной методологической основой воспитания гармонично развитой личности.

Ключевые слова: Алишер Навои, произведения Навои, отношения учителя и ученика, аксиология, система ценностей, духовное воспитание, совершенный человек, педагогическое наследие, образование и воспитание, уважение к учителю, нравственное воспитание ученика.

KIRISH

Ustoz-shogird an'anasi xalqimizning asrlar davomida shakllanib, ma'naviy hayotimizning ajralmas qismiga aylangan milliy qadriyatlaridan biridir. Ushbu an'ana nafaqat bilim va tajribani avloddan avlodga yetkazish vositasi, balki yoshlarni komillik, vatanparvarlik, insonparvarlik va ezgulik ruhida tarbiyalashning muhim mexanizmi sifatida ham e'tirof etiladi. Sharq xalqlari tarixida ustozga hurmat va ehtirom, shogirdning ustoz oldidagi mas'uliyati hamda ilmga sadoqat yuksak ma'naviy qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

Qadriyat inson va jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi, kishilarning maqsad va intilishlarini belgilovchi ijtimoiy-ma'naviy hodisadir. Aksiologiya fanida qadriyatlar inson faoliyatini boshqaruvchi hamda uning ma'naviy kamolotini ta'minlovchi omillar sifatida talqin etiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ustoz-shogird munosabatlari ham o'zida ilmga hurmat, odob, sadoqat, kamtarlik, mehr-oqibat, hamkorlik va mas'uliyat kabi muhim qadriyatlarni mujassamlashtirgan ijtimoiy-pedagogik hodisa hisoblanadi.



Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan tasavvuf ta'limotida ham ustoz-shogirdlik (pir-muridlik) munosabatlari alohida o'rin egallaydi. Tasavvufda muridning ma'naviy kamolotga erishishi bevosita pining ilmiy va axloqiy rahnamoligi bilan bog'liq deb qaralgan. Natijada ustozga sadoqat, uning nasihatlariga amal qilish, ilm va ma'rifat yo'lida fidoyilik ko'rsatish Sharq ma'naviyati hamda pedagogik tafakkurining muhim tarkibiy qismiga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, xalqimizning mehmondo'stlik, ezgulik, bag'rikenglik, saxovat va insonparvarlik kabi fazilatlari milliy mentalitetimizning asosini tashkil etadi. Aynan ana shu qadriyatlar ustoz-shogird munosabatlarida ham o'z ifodasini topib, jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ustoz maqomini yuksaltirish hamda ta'lim sifatini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Sharq Renessansi davrining buyuk mutafakkiri Alisher Navoi ijodiy merosida ham ustoz-shogird munosabatlari, ilm-ma'rifat, komil inson tarbiyasi va ma'naviy kamolot masalalari markaziy o'rin egallaydi. Navoiy o'z asarlarida ilmni insonni ulug'lovchi eng buyuk ne'mat sifatida talqin etar ekan, ustozni ma'naviy yetuklikka boshlovchi yo'l ko'rsatuvchi sifatida tasvirlaydi. Uning Mahbub ul-qulub, Hayrat ul-abror, Nasoyim ul-muhabbat kabi asarlarida ustozga hurmat, ilm ahlini ulug'lash, shogirdning odobi hamda ma'naviy mas'uliyati haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Mutafakkirning mazkur qarashlari bugungi kunda ham yoshlarni tarbiyalash, ta'lim jarayonida samarali ustoz-shogird munosabatlarini shakllantirish va milliy qadriyatlarni rivojlantirishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bois Alisher Navoiy ijodiy merosida ustoz-shogird munosabatlarining aksiologik asoslarini o'rganish, undagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni aniqlash hamda zamonaviy ta'lim tizimida ulardan samarali foydalanish masalalari dolzarb ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ustoz-shogird munosabatlari va unga xos ma'naviy-axloqiy qadriyatlar o'zbek xalqining ko'p asrlik tarbiyaviy tajribasi hamda pedagogik tafakkurida muhim o'rin tutadi. Ushbu an'ananing ildizlari xalq og'zaki ijodi, qadimgi yozma manbalar va Sharq mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosiga borib taqaladi. Xususan, ustozga hurmat, ilmga intilish, odob-axloq, kamtarlik va komillik g'oyalari milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi sifatida shakllangan.

Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kaykovus hamda Muhammad Sodiq Koshg'ariylarning ilmiy va badiiy merosida ustoz-shogird munosabatlariga oid qimmatli fikrlar ilgari surilgan. Ularning asarlarida ilm-ma'rifatning inson kamolotidagi o'rni, ustozning jamiyat taraqqiyotidagi mas'uliyati, shogirdning axloqiy fazilatlari hamda ta'lim-tarbiya jarayonining ma'naviy asoslari yoritilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarida ustoz-shogird munosabatlari insoniy va ma'naviy qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq holda talqin etilgan.

Alisher Navoiyning Mahbub ul-qulub, Hayrat ul-abror, Nasoyim ul-muhabbat, Majolis un-nafois kabi asarlarida ilm ahliga hurmat, ustozga ehtirom, komil inson tarbiyasi va ma'naviy yetuklik masalalari keng yoritilgan. Mutafakkir ustozni jamiyatning ma'naviy tayanchi, shogirdni esa ilm va odob orqali kamolot sari intiluvchi shaxs sifatida tasvirlaydi. Shu jihatdan Navoiy merosi ustoz-shogird munosabatlarining aksiologik asoslarini o'rganishda muhim nazariy manba hisoblanadi.

So'nggi yillarda ustoz-shogird an'analari ta'lim tizimida rivojlantirish, ularni qadriyatlar asosida tashkil etish masalalari bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, G. Najmetdinov, B. Karomatova, D.H. Qosimova, Sh.Z. Taylanova, E.N. Temirova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda ustoz-shogird munosabatlarining tarbiyaviy imkoniyatlari, ma'naviy-axloqiy mazmuni hamda ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ustoz-shogird munosabatlarining pedagogik va tarbiyaviy jihatlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, Alisher Navoiy ijodiy merosida aks etgan ustoz-shogird munosabatlarining aksiologik asoslarini zamonaviy ta'lim nuqtayi nazaridan kompleks o'rganish masalasi alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini aksiologik yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi hamda Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Hayrat ul-abror", "Nasoyim ul-muhabbat", "Majolis un-nafois" va boshqa asarlarida ilgari surilgan ustoz-shogird munosabatlariga oid fikrlari aksiologik nuqtayi nazardan tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqot davomida pedagogik va falsafiy adabiyotlar, ustoz-shogird an'analari o'rganilgan ta'lim tizimida qadriyatlar asosida tashkil etilayotgan mentorlik faoliyatiga doir tadqiqotlar hamda zamonaviy ta'lim tizimida qadriyatlar asosida tashkil etilayotgan mentorlik faoliyatiga doir

manbalar o'rganildi. Olingan natijalar induktiv va deduktiv yondashuvlar asosida umumlashtirilib, Alisher Navoiy merosida ustoz-shogird munosabatlarining aksiologik asoslari hamda ularning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritib berildi.

Tadqiqot metodologiyasining asosiy yo'nalishi Alisher Navoiy ijodiy merosida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni aniqlash, ularni tizimlashtirish hamda zamonaviy ustoz-shogird munosabatlarini takomillashtirish nuqtayi nazaridan ilmiy-pedagogik jihatdan talqin etishga qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Alisher Navoiy ijodiy merosida ustoz-shogird munosabatlari nafaqat ta'limiy yoki ijtimoiy hodisa sifatida, balki insonning ma'naviy kamolotini ta'minlovchi yuksak qadriyat sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, shoirning lirik asarlarida "ustoz", "shogird", "pir", "murid", "uvays" kabi tasavvufiy istilohlar keng qo'llanilib, ularning mazmun-mohiyatiga alohida e'tibor qaratiladi. Tasavvuf ta'limotida pir ma'naviy yo'l ko'rsatuvchi, murshid va ruhiy tarbiyachi bo'lsa, murid esa uning ko'rsatmalari asosida ma'naviy kamolot sari intiluvchi shaxs sifatida talqin qilinadi. Shu bois Navoiy asarlarida mazkur tushunchalar faqat diniy yoki irfoniy mazmunda emas, balki komil insonni tarbiyalashning muhim vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Shoirning g'azal, ruboiy va boshqa lirik janrlardagi asarlarida pir va murid munosabatlari orqali insonning o'z ustida ishlashi, ilm va ma'rifatga intilishi, axloqiy poklanishi hamda ruhiy yetuklikka erishish jarayoni badiiy ifoda etiladi. Navoiy nazarida ustoz shaxsning ma'naviy olamini yorituvchi nur manbai bo'lib, shogird esa ana shu nurdan bahramand bo'lib, komillik sari odimlaydigan insondir. Demak, ustoz-shogird munosabatlari shoir talqinida ma'naviy taraqqiyotning muhim omili va qadriyatlar tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

Alisher Navoiy o'zining ijodiy va ilmiy faoliyati davomida ustozlarga ehtirom ko'rsatish, salaflar merosini qadrlash hamda ulardan saboq olish g'oyalari izchil targ'ib etgan. U o'zidan avval yashab, ijod qilgan mutafakkirlar va shoirlarni chuqur hurmat bilan tilga olib, ularning ilmiy hamda badiiy merosini yuksak baholaydi. Bu holat Navoiyning ustozga sadoqat va vorisilik tamoyillariga bo'lgan munosabatini yaqqol namoyon etadi. Shu jihatdan qaraganda, Navoiy ijodi Sharq adabiyotidagi ustoz-shogird an'anasining yuksak namunasi sifatida e'tirof etiladi.

Buyuk mutafakkir yaratgan boy ma'naviy meros o'z davridayoq ko'plab ijodkorlar uchun mahorat maktabiga aylangan. Navoiy an'analari zamondosh va keyingi davr adiblari ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatib, o'zbek va umuman turkiy adabiyot taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Natijada Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki ulkan adabiy maktab asoschisi va ko'plab ijodkorlar uchun ma'naviy ustoz maqomiga ko'tarildi. Bu esa ustoz-shogird an'anasining jamiyat ma'naviy hayotidagi ahamiyatini yanada kuchaytirib, uni muhim aksiologik qadriyat darajasiga olib chiqdi.

Alisher Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" asarida turkiy adabiyot taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ko'plab shoirlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Jumladan, Atoiy, Gadoiy, Sakkokiy, Amiriyy va boshqa ijodkorlarning adabiy merosini yuksak baholab, ularni o'ziga xos adabiy maktab vakillari sifatida e'tirof etadi. Bu holat Navoiyning salaflar ijodiga bo'lgan chuqur hurmati hamda ustoz-shogird an'analarga sodiqligini yaqqol namoyon etadi.

Ayniqsa, Navoiy Mavlono Lutfiy shaxsiyati va ijodiga alohida ehtirom bilan yondashadi. U "Majolis un-nafois" asarida Lutfiyni o'z zamonasining "malik ul-kalom"i, ya'ni so'z mulking sultoni sifatida ta'riflab, uning forsiy va turkiy adabiyotdagi yuksak mavqei e'tirof etadi. Navoiyning ta'kidlashicha, Lutfiy turkiy tilda yaratgan asarlari bilan ayniqsa katta shuhrat qozongan bo'lib, uning devoni adabiy jamoatchilik orasida keng mashhur bo'lgan. Bu baho Navoiy nazarida Lutfiyning nafaqat iste'dodli shoir, balki butun bir ijodkorlar avlodi uchun ustoz maqomiga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

"Nasoyim ul-muhabbat" asarida ham Navoiy Lutfiyning tasavvuf ilmlaridan chuqur xabardor ekanligini qayd etadi. Shoir Mavlono "bu qavmning ustodi va malik ul-kalomi" deya ulug'laydi. Mazkur e'tirof Lutfiyning adabiy va ma'naviy maktab yaratgan siymo sifatidagi o'rnini belgilab beradi. Navoiy uchun Lutfiy nafaqat so'z san'atining yirik vakili, balki ma'naviy kamolot yo'lida ibrat bo'luvchi ustoz ham hisoblangan.

Shuningdek, Navoiy Mavlono Lutfiyning Abdurahmon Jomiyya bo'lgan hurmati va e'tiqodini ham alohida ta'kidlaydi. Bu holat Sharq ma'naviy-madaniy muhitida ustoz-shogird an'analarning izchillik bilan davom etganligini ko'rsatadi. Ya'ni, Lutfiy Jomiyni ma'naviy ustoz sifatida ulug'lagan bo'lsa, Navoiy esa Lutfiyni o'zining adabiy ustozlaridan biri sifatida e'tirof etadi. Natijada ustoz-shogirdlik rishtalari bir necha avlod ijodkorlarini bog'lab turuvchi ma'naviy ko'prik vazifasini bajargan.

Mazkur qarashlar Alisher Navoiy ijodiy merosida ustoz-shogird munosabatlari yuksak aksiologik qadriyat sifatida talqin etilganligini ko'rsatadi. Ustozga hurmat, salaflar merosiga sadoqat, ilm va ma'rifat yo'lida vorislikni davom ettirish kabi fazilatlar Navoiy asarlarida komil inson tarbiyasining muhim mezonlari sifatida namoyon bo'ladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Navoiy asarlaridagi badiiy obrazlar, ramzlar va tasavvufiy timsollar tahlili shuni ko'rsatadiki, ustoz-shogirdlik munosabatlari shoir dunyoqarashining markaziy g'oyalaridan biri hisoblanadi. Ustozga hurmat, ilmga sadoqat, ma'naviy poklik, kamtarlik va komillikka intilish kabi fazilatlar Navoiy talqinida inson hayotining eng oliy qadriyatlari sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli mutafakkirning ustoz-shogird munosabatlariga oid qarashlari bugungi kunda ham yosh avlodni tarbiyalash, ta'lim jarayonida samarali mentorlik tizimini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayzulloyev B. Nishotiy ijodida Navoiy an'analari // "Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. - T., 2022.
2. G'anieva S. Mavloni Lutfiy Navoiy nigohida. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. - № 5. - T., 2010.
3. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. To'rtinchi devon. "Favoyid ul-kibar". - T.: Tamaddun, 2011.
4. Abduraximova F. Oila - ma'naviyat va qadriyat beshigi. - T.: Istiqlol, 2009.
5. Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlarida ramz va timsollar. - T.: Fan va texnologiya, 2015.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.